

UDC: 342.5(042)(57501)
ORCID: 0000-0002-2705-950X

HUKUMATNING DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA ROLI

Hoshimxonov Ahror Mo'minovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent
e-mail: hoshimxonov@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hukumatning davlat hokimiyati tizimida tutgan o'rni, Hukumatning parlament va prezident bilan o'zaro munosabatlari, Hukumatning qonunlar ijrosi yuzasidan qarorlar qabul qilishi, ijro hokimiyatining vakolatlari xorijiy mamlakatlar huquqiy amaliyoti asosida tahlil qilingan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi ishlarning tadrijiy davomi sifatida kelgusida davlat va hududiy rivojlanish dasturlarini shakllantirishda hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tashabbuskorligini oshirish, strategik rivojlanish dasturlarini amalga oshirish samaradorligiga asoslangan barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini, shu jumladan vakillik hokimiyati organlari tomonidan ular hisobotlarini eshitish yo'li bilan baholashning prinsipial yangi tizimini joriy etish, davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlari, roli va javobgarligini kengaytirish, mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo'linishi prinsipining amaliy ro'yoga chiqarilishini ta'minlash haqida mulohazalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: hukumat, Vazirlar Mahkamasi, prezident, parlament, vakolat va mas'uliyat.

МЕСТО И РОЛЬ ПРАВИТЕЛЬСТВА В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ

Хошимхонов Ахрор Муминович,
кандидат юридических наук, доцент,
проректор Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируется роль правительства в системе государственной власти, взаимоотношения правительства с парламентом и Президентом, принятие правительством решений по реализации законов, полномочия исполнительной власти на основе зарубежной юридической практики. Важно повышать инициативу территориальных органов исполнительной власти в формировании перспективных государственных и региональных программ развития, оценивать деятельность органов исполнительной власти и их руководителей на всех уровнях, в том числе путем заслушивания их отчетов, исходя из эффективности стратегического развития. В качестве предложений выдвинуты: внедрение новой системы и постепенная децентрализация государственного управления, расширение финансовых возможностей, роли и ответственности органов местного самоуправления, создание системы местного самоуправления. Это позволит обеспечить практическую реализацию принципа разделения власти.

Ключевые слова: правительство, Кабинет Министров, Президент, парламент, полномочия и обязанности.

THE PLACE AND ROLE OF GOVERNMENT IN THE SYSTEM OF PUBLIC AUTHORITIES

Hoshimkhonov Ahror Mominovich,
Deputy rector of Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

Abstract. This article analyzes the role of the government in the system of state power, the relationship of the government with the parliament and the president, the government's decision-making on the implementation of laws,

the powers of the executive on the basis of foreign legal practice. It is important to increase the initiative of territorial executive bodies in the formation of future state and regional development programs, to evaluate the activities of executive bodies and their leaders at all levels, including by hearing their reports, based on the effectiveness of strategic development programs. introduction of a new system, gradual decentralization of public administration, expansion of financial capabilities, role and responsibility of local authorities, the system of local government There are suggestions on how to ensure the practical implementation of the principle of separation of powers in the organization of.

Keywords: Government, Cabinet of Ministers, president, parliament, powers and responsibilities.

Har qanday mustaqil davlat o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olar ekan o'z oldiga muayyan maqsad va vazifalarni qo'yadi. Ana shu maqsad va vazifalarni belgilash ishini xalq tomonidan saylangan hamda xalq xohish-irodasini ifoda etadigan parlament, shuningdek davlat boshlig'i amalga oshiradi. Davlat oldidagi ana shu vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat va funksiyalarni ijro etuvchi hokimiyat amalga oshiradi. Davlat siyosatining asosiy yo'nalish va maqsadlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda ham hukumat asosiy rol ni o'ynaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari davlat va jamiyat hayotida faqatgina qonunlar ijrosini ta'minlash bilan cheklanib qolmaydi. Balki ular davlat va jamiyatning normal hayot tarzini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi quyi organlar vakolatlarini taqsimlash, ular faoliyatini nazorat qilish va davlat miqyosida umummajburiy bo'lgan huquq ijodkorligi faoliyatini ham amalga oshiradi. Ushbu holat, totalitar sotsialistik mamlakatlarda hukumatning farmoyish beruvchilik maqomini kengaytirib yuborgan. Aytib o'tilganidek, ijro etuvchi hokimiyat oliy organlari qonunlar ijrosi yuzasidan mustaqil huquq ijodkorligi vakolatiga ham ega. Parlament tomonidan belgilangan vazifalar asosida davlat boshlig'i, hukumat, alohida ministrlar (vazirlar, kengash a'zolari) davlat va jamiyat hayotining muhim hisoblangan jabhalaridagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi bajarilishi umummajburiy hisoblangan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladilar. Ba'zida ushbu huquqni qo'llash aktlari qonunlar maqomi darajasida ahamiyat kasb etadi.

Yevropaning ba'zi mamlakatlarida [1] va Yaponiyada [2] monarx konstitutsiya asosida hukumatga rahbarlik qilish vakolatlaridan mahrum qilingan yoki amalda ushbu vakolat vaqt o'tishi bilan yo'qotilgan. Ushbu mamlakatlarda monarx davlat boshlig'i sifatida millatning

davlatchilik va birdamlik ramzi ifodasi bo'lib qolgan.

Prezident va hukumat masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, oxirgi yillarda parlamentar va, ayniqsa, yarimpresidentlik respublika davlat boshqaruvi shaklida bo'lgan mamlakatlarda prezidentni hukumatdan ajratish tendensiyasi kuzatilmoqda. Keyingi davrlarda prezident hokimiyatining muayyan ko'rinishini yaratish g'oyalari ilgari surilmoqda. Ushbu g'oya prezidentni barcha hokimiyat tarmoqlaridan, alohidalashtirish, hech bir hokimiyatga kirmaslik va uni barcha ommaviy hokimiyatlar ustidan oliy hakamlik funksiyasini bajaruvchi institut sifatida siyosiy maydonga keltirishni nazarda tutadi. Mazkur g'oya Fransiyaning 1858-yilgi Konstitutsiyasida ifodalangan bo'lib, uningta'siriba'zipostsotsialistik mamlakatlarning (Qozog'iston [3] 1995-yilgi, Belarus [4] 1996-yilgi) konstitutsiyalarida ham ifodalangan.

Shunday holat aynan 2007-yil 11-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga kiritilgan o'zgartishga ko'ra asosiy qonun matnida o'z ifodasini topdi va unga asosan [5], O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi.

Prezidentlik va yarimpresidentlik respublikalarida (Misr, Rossiya, Ukraina [6] va boshqalar) an'anaviy prezidentlik respublikalarida mavjud bo'lmagan premyer-ministr (bosh vazir) kabi mansab tashkil etilgan. Mazkur mamlakatlarda bosh vazir (premyer-ministr) lavozimi prezidentlik lavozimidan farqli o'laroq ijro etuvchi hokimiyat ma'muriyati rahbari sifatida taniladi. Prezident esa ayni vaqtda ijro etuvchi hokimiyatni shakllantiradi va uni iste'fosini qabul qilish vakolatiga ega, shuningdek hukumat qarorlarini bekor qilish borasida ham vakolatga ega hisoblanadi va bu, o'z navbatida, ijro etuvchi hokimiyat tarmog'i

faoliyatida ham prezidentning behad muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Ba'zi prezidentlik va yarimpresidentlik respublikalarida bosh vazirga ayrim tarmoq vazirlari ishiga rahbarlik qilish vakolatlari ham berilgan, lekin muhim sohalar (mudofaa, ichki ishlar, tashqi ishlar va boshqalar) prezidentning o'z qo'li ostida qolgan [7].

Davlat hokimiyatining parlament va sudlov organlaridan farq qilgan holda hukumat yagona vertikal tizimni tashkil etadi. Ushbu tizimda quyi turuvchi organlar yuqori turuvchi organlarga bo'ysunadilar, ular qonunlar bilan birga o'zidan yuqori turuvchi organ va mansabdorlarning ko'rsatmalari hamda farmoyishlariga so'zsiz amal qiladilar. Hukumat faoliyatini takomillashtirish, ularning ishlash imkoniyatini yanada oshirish, huquq va majburiyatlarini yanada aniq belgilash maqsadida joylardagi ijro etuvchi hokimiyat mansabdorlari va mahalliy organlari faoliyati ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi tomonidan kuzatilib, nazorat qilib boriladi. Ular qabul qilgan qarorlar va boshqa huquqiy aktlar yuqori turuvchi markaziy organlar tomonidan bekor qilinishi yoki to'xtatib turilishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ijro hokimiyatining markaziy kollegial organi sifatida hukumat davlat va jamiyat hayotida juda muhim o'rin tutadi. Chunki oliy vakillik organlari tomonidan qabul qilingan har qanday huquqiy hujjatlar ijrosi ushbu organlar zimmasida bo'ladi. Hukumat (ijro hokimiyati) davlat va jamiyat hayotida fuqarolarning normal hayot tarzini ta'minlash uchun faol harakat qiladi. Bu borada davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, Davlat idoralarining xalqimizga ko'rsatadigan xizmati – odamlarni rozi qilishning asosiy me'zonidir [8]. Shu ma'noda, ijro hokimiyati ijtimoiy hayotda rivojlanishning jadal sur'atlarda kechishini ta'minlaydi hamda xalqaro maydonda mamlakatning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda davlat hokimiyatining eng muhim tarmog'i sifatida maydonga chiqadi.

Hukumat organlari qo'l ostida davlat boshqaruvining barcha va xo'jalik boshqaruvining ayrim jihatlariga doir masalalarni hal qilish vakolati mavjud bo'lib, ularni kengroq keltirib o'tadigan bo'lsak, ular – qonuniylik, huquqiy tartibot, mudofaa va xalqaro munosabatlar, jinoyatchilikka qarshi kurash va fuqarolarning

manfaatlari bilan bog'liq ishlar, kadrlar masalasini hal qilish, davlat organlari, korxona, muassasa va tashkilotlar faoliyatini boshqarish va yo'naltirish hamda ular faoliyati ustidan nazorat olib borish, shuningdek budjet, uning ijrosi haqidagi hisobot, moliya, hisob-kitob, mulkchilik munosabatlari, yerdan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, savdo, sog'liqni saqlash, maishiy xizmat ko'rsatish, qurilish, transport, aloqa va aholini ijtimoiy himoya qilish kabi o'ta muhim masalalarni hal qilish va boshqa vakolatlardir. Bu vakolatlarning mavjudligi, o'z navbatida, ijro hokimiyati faoliyati ijtimoiy hayot jabhasining barcha tarmoq va sohalarini qamrab oladi degani bo'lib, ushbu sohalar bevosita ijro organlari harakati natijasida boshqariladi va natijada fuqarolarning hayotiy ehtiyojlari ta'minlanadi.

Ijro hokimiyati o'z ichiga davlatning ko'plab organlarini va xizmatchilarini qamrab oladi va shu sababli ham unda real ko'pdan ko'p vakolatlar bo'ladi. Shuningdek, huquqiy davlatda hukumatning bosh vazifasi fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi qonunlarning ijrosini ta'minlashdir.

Mamlakat qonunchilik hokimiyati bir xil maqomga ega bo'lgan bir guruh deputatlardan tashkil topgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi va faoliyat turi hayot uchun eng zarur qonunlar ustida ishlash hisoblanadi. Ular xalqning parlamentdagi vakillari bo'lganligi sababli ham bevosita xalqning oldida mas'uliyatli va hisobdordirlar. Hukumat esa bir-biriga bo'ysunuv asosida faoliyat yurituvchi ijro etuvchi hokimiyatning markaziy kollegial organidir. Aynan mana shu ma'noni ifoda etuvchi qoida 2019-yil 10-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasida, o'z ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasi Hukumati ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi bo'lib, iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali faoliyat ko'rsatishiga rahbarlik qilishni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi. Ushbu normaga asosan, hukumat barcha ijro hokimiyati quyi bo'g'in organlarining oliy va kollegial organi sifatida faoliyat olib borishi anglashiladi. Ba'zi an'anaviy prezidentlik boshqaruvi shaklidagi

davlatlar (AQSh)da alohida kollegial organ sifatida ijro hokimiyatining markaziy organi hukumat mavjud emas. Yarimprezidentlik davlatlarida hukumat tarkibi prezident va parlament tomonidan va parlamentar respublikalarda esa hukumat Premyer-ministr (bosh vazir) tomonidan shakllantirilib parlament tomonidan tasdiqlanadi. Parlamentar respublikalarda yoki monarxiyalarda hukumat o'zining to'la tarkibi bilan siyosiy faoliyati yuzasidan parlament oldida javobgar bo'ladi (Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya) [9].

Davlat va jamiyat hayotida sud hokimiyat odil sudlovni amalga oshirib, barcha qonunga zid harakatlar uchun javobgarlik va jazo muqarrarliligini ta'minlab, jamiyatda adolat qaror topishini kafolatlasa, ijro hokimiyati ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga o'zining ta'sirini boshqaruv va qonun hujjatlari ijrosi orqali muntazam ko'rsatib turadi. Jamiyat hayotiga bunday aralashuv qonun hujjatlariga asosan hukumatning o'z huquqiy hujjatlarini qabul qilish va bevosita faoliyati orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ba'zi huquqshunos olimlar parlament va hukumat o'rtasidagi aloqalar o'zaro bo'ysunuv asosiga quriladi deb hisoblaydilar. Masalan, K.V. Aranovskiy "parlament va hukumat o'rtasidagi aloqalar o'zaro teng va bo'ysunuv asosiga qurilgandir" [10], deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, davlat hayotida hukumatning parlamentga bo'ysunishini ko'p jarayonlarda kuzatish mumkin. Jumladan, hukumat bevosita ishlab chiqadigan va ijrosini ta'minlaydigan budjetni parlament tasdiqlaydi hamda soliq to'lovlarini ham aynan vakillik organi belgilaydi. Buning natijasida esa, hukumat faoliyati moliyalashtiriladi hamda hukumatning ijro faoliyatini yo'naltiruvchi reja va dasturlar ishlab chiqiladi.

Xorijiy davlatlarda davlat hisobidan maosh olib ishlaydigan hukumat a'zolari tarkibi parlament qabul qilgan qonunlar bilan belgilanadi. Hukumat yoki vazirliklar tomonidan qabul qilingan qarorlar, parlamentning shu masalalar to'g'risida chiqargan qonuni bilan o'z kuchini yo'qotadi. Bu ham ijro hokimiyatining faoliyati qonunosti xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayni damda ushbu holat, hukumatning qonunchilik jarayoni va faoliyatida faol emas degan tushunchaga sabab bo'lmashligi kerak. Sababi garchi parlament qonunlarni qabul qilsa-da, ko'pchilik qonun loyihalari aynan hukumat faoliyati natijasida, ijtimoiy hayotdagi

qonuniy yechim talab etiladigan munosabatlarni aniqlash orqali shakllantiriladi. Bundan tashqari, davlat rahbari hukumatning ta'siri natijasida parlament qabul qilgan qonunlarga veto qo'yishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati oliy davlat hokimiyati organlari tizimida o'ziga xos o'ringa ega. Vazirlar Mahkamasining parlamentimiz, ya'ni Oliy Majlis bilan munosabati yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunda o'z ifodasini topgan. Unga binoan, Bosh vazir lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko'rib chiqilayotgan va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturini taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, Davlat budjetining asosiy parametrlarini va unga o'zgartishlarni ishlab chiqadi hamda ularni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari Vazirlar Mahkamasi muayyan a'zosining o'zi rahbarlik qilayotgan davlat yoki xo'jalik boshqaruvi organi faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitishlari hamda zarur bo'lganda uni iste'foga chiqarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taklif kiritishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining a'zolari Respublikasi Oliy Majlisi palatalari majlislarida, palatalarning qo'mitalari majlislarida hozir bo'lish va axborot berishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari tomonidan Vazirlar Mahkamasi yoki uning muayyan a'zolari faoliyatiga taalluqli masalalar qo'yilgan taqdirda, Bosh vazir shu masalalar yuzasidan zarur tushuntirishlar olish va tushuntirishlar berishga haqli.

Shuningdek, yangi tahrirda qabul qilingan qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Hukumati a'zolari Qonunchilik palatasining majlisida Qonunchilik palatasi deputatlarining savollariga javoblarni taqdim etadi ("hukumat soati"). Mazkur tartib rivojlangan demokratik

mamlakatlarning boy davlatchilik amaliy tajribasi asosida belgilandi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qo'mitalari va komissiyalarining O'zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyati masalalariga doir tavsiyalari va takliflarini ko'rib chiqadi hamda ular yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi. Tavsiyalar va takliflarni ko'rib chiqish natijalari haqida hamda ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tegishli qo'mitalarini va komissiyalarini kelishilgan muddatda xabardor qiladi.

Qonunchilik palatasining, Senatning O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki unga bo'ysunuvchi davlat boshqaruvi organlari faoliyatiga taalluqli bo'lgan parlament so'rovi, Qonunchilik palatasi deputatining, Senat a'zosining shunday so'rovi yuborilgan Vazirlar Mahkamasi yoki uning a'zosi qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda javob taqdim etishi shart.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida hokimiyatlar bo'linishi tamoyilidan kelib chiqqan holda o'ziga yuklatilgan vazifa, ya'ni davlatning ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshirar ekan, bu jarayonda Prezident, Oliy Majlis va sud hokimiyati bilan muntazam aloqada bo'ladi. Bu aloqa asosan Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlarning hamda Prezident farmon, qaror va farmoyishlarining ijrosi yuzasidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari ushbu aloqalar Hukumatning qonun loyihalarini Oliy Majlisga taqdim qilishida, deputat so'rovlariga javob yo'llashida, Prezidentning Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishida va Bosh vazir taqdimiga binoan parlament ma'qullagach Prezident tomonidan Hukumatni shakllantirilishida ham namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomi va uning davlat hokimiyati tarmoqlariga nisbatan tutgan o'rni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasida o'z aksini topgan bo'lib unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi. Mazkur Konstitutsiyaviy-huquqiy asos prezidentning mamlakat hayotidagi eng oliy mansabdor shaxs ekanligini belgilab berishi

barobarida uning ayni paytda davlat hokimiyati organlarining o'zaro kelishilgan holda faoliyat yuritishlarini ta'minlovchi subyekt ekanligini ham ifoda etadi.

Prezidentning Vazirlar Mahkamasi bilan o'zaro faoliyatini tahlil qilish orqali ushbu munosabatlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin. *Birinchi guruhga* prezidentning Vazirlar Mahkamasi tarkibini shakllantirish borasidagi vakolatlariga doir o'zaro hamkorligini belgilovchi qoidalarni kiritish mumkin bo'lsa, *ikkinchi guruhga* bevosita hukumatning faoliyati davomida qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlariga nisbatan prezidentning ularni bekor qilish va hukumatning majlislarida raislik qilish borasidagi faoliyati asoslari hisoblanadi. *Uchinchi guruhga* prezidentning hukumatga nisbatan bildirilgan ishonchsizlik votumi holatida yoki uning o'zi tomonidan hukumatni vazifasidan ozod etish yuzasidan tegishli qaror qabul qilish bilan bog'liq o'zaro faoliyati huquqiy asoslarini kiritamiz va bu ham hukumatga nisbatan prezidentning muayyan huquqlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Davlatimizda so'nggi yillarda ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati ham tubdan isloh qilinmoqda va bu, o'z navbatida, ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining zamonaviy talablarga javob bermaydigan institusional asoslari va ular faoliyatining prinsiplari o'tkazilayotgan islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga hamda jamiyatimiz oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga to'squinlik qilayotganligi bilan bevosita izohlanadi. Shu va boshqa ijtimoiy zaruriy sabablar asnosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrda O'zbekiston Respublikasida "Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son Farmoni qabul qilinib, quyidagilar davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlari va vazifalari etib belgilandi:

- ijro etuvchi hokimiyat organlari, shu jumladan ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarini tashkil etish va tugatishning aniq mezonlari hamda tartib-taomillarini joriy qilish;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari, ularning tuzilmalari va bo'linmalarini optimallashtirish;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari va ular rahbarlarining biriktirilgan sohada davlat siyosati amalga oshirilishida mustaqilligini oshirish;

– “Elektron hukumat” tizimini yanada keng joriy etish;

– davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish;

– ma'muriy adliya tizimini rivojlantirish;

– ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalari (funktsiyalari, vakolatlari)ni, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirish, muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlik jarayonlarini takomillashtirish;

– ijro etuvchi hokimiyat organlarining aniq vazifalari (funktsiyalari, vakolatlari)ni va javobgarlik sohalarini belgilash, ishonib topshirilgan tuzilma faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishning aniq tizimini joriy etish va boshqalar belgilandi. Bu o'z navbatida ijro hokimiyati organlari o'z faoliyatida kelgusida faqatgina boshqaruvni amalga oshiruvchi organ sifatidagina emas, balki ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan holda zamonaviy shakl va usullarda faoliyatini tashkil etishi, boshqaruvdan ko'ra ko'proq fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatishi kerakligi hamda boshqa yo'nalishlarda mustaqil qarorlar qabul qilishi kerakligini huquqiy jihatdan belgilashni nazarda tutdi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarning tadrijiy davomi sifatida kelgusida davlat va hududiy rivojlanish dasturlarini shakllantirishda hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tashab-

buskorligini oshirish, strategik rivojlanish dasturlarini amalga oshirish samaradorligiga asoslangan barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini, shu jumladan vakillik hokimiyati organlari tomonidan ular hisobotlarini eshitish yo'li bilan baholashning prinsipial yangi tizimini joriy etish, davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlari, roli va javobgarligini kengaytirish, mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo'linishi prinsipining amaliy ro'yobga chiqarilishini ta'minlash va boshqa shu kabi masalalar turibdiki, ularning amalga oshirilishi natijasida maqsadli tarzda faoliyat yuritadigan, faoliyatining asosiy me'zoni inson haq-huquqlarini ta'minlash bo'ladigan va fuqarolarni davlatdan rozi qilishni maqsad qiluvchi ijro hokimiyatining samarali faoliyat yuritishi ta'minlanadi.

Davlat boshqaruvi doimo doiraviy rivojlanishda, shu bois, u fan oldiga yangidan yangi masalalarni qo'yishi hamda boshqaruv tizimining takomillashuvi va islohotlarni taqozo etishi aniqdir. Bu tabiiy hol, albatta. Zotan, boshqaruv jarayonini takomillashtirish bir martalik tadbir bo'lmasdan, balki jamiyat taraqqiyoti oldimizga qo'yayotgan yangidan yangi vazifalarni muntazam yechib borishning dinamik jarayonidir.

REFERENCES

1. Konstitucija Shvecii (Korolevstva Shvecija) [Constitution of Sweden (Kingdom of Sweden)]. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/sweden.pdf/>.
2. Japoniya. Konstitucija [Japan. Constitution]. Available at: <https://www.krugosvet.ru/enc/gosudarstvo-i-politika/yaponiya-konstitutsiya#part-1/>.
3. Oficial'nyj sajt Prezidenta Respubliki Kazahstan [Official site of the President of the Republic of Kazakhstan]. Available at: https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution/.
4. Konstitutsija Respubliki Belarus [Constitution of the Republic of Belarus]. Available at: <https://pravo.by/pravovaya-informatsiya/normativnye-dokumenty/konstitutsiya-respubliki-belarus/>.
5. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-apreldagi O'RQ-89-son Qonuni tahririda [As amended by the Law of the Republic of Uzbekistan dated April 11, 2007 No. ZRU-89]. O'R QHT, 2007, no. 15.
6. Konstitucija Ukrainy [Constitution of Ukraine]. Available at: https://www.concourt.am/armenian/legal_resources/world_constitutions/const/ukraine/ukrain-r.htm/.
7. Jelektronnyj fond bolee 25 000 000 aktual'nyh pravovyh i normativno-tehnicheskix dokumentov [Electronic fund of more than 25,000,000 current legal and regulatory documents]. Available at: <https://docs.cntd.ru/document/566213051?marker=8QK0M7/>.
8. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston Strategiyasi [New Uzbekistan Strategy]. Tashkent, 2021, p. 83.
9. Available at: docs.google.com/viewerng/viewer?url=http://legalns.com/download/books/cons/spain.pdf/.
10. Aranovskiy K.V. Gosudarstvennoe pravo zarubezhnyh stran. Uchebnik dlja vuzov [State law of foreign countries. Textbook for universities]. Moscow, FORUM-INFRA-M Publ. grup, 1998, p. 418.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

II QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.